

EKVIVALENTSIZ LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI VA ULARNI INGLIZ TILINI O’QITISHDA QO’LLASH

Avalboyeva Maftuna Qodir qizi

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

E-mail: maftunka0710@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22899343>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi ekvivalentsiz leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularni umumiy o’rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o’qitish jarayonida samarali o’zlashtirish masalasi tahlil qilinadi. Ekvivalentsiz leksikaning boshqa tilda to’liq va bevosita ma’no muqobili mavjud bo’lmagan, muayyan xalqning milliy-madaniy tajribasi bilan uzviy bog’liq birliklar sifatidagi xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ekvivalentsiz leksika va lakuna tushunchalarining o’zaro munosabati izohlanib, ularni bir-biridan farqlashning lingvistik va lingvodidaktik ahamiyati ko’rsatiladi. Maqolada *prom*, *homecoming*, *Thanksgiving*, *trick-or-treat*, *pub*, *Aunt Sally* kabi birliklar misolida leksik ma’no bilan bir qatorda madaniy komponentni ham o’zlashtirish zarurligi asoslanadi. Tadqiqot natijasida ekvivalentsiz leksik birliklarni o’qitishda vizual, kontekstual, qiyosiy va kommunikativ yondashuvlardan foydalanish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Ekvivalentsiz leksika, lingvomadaniyat, lakuna, lingvokulturologiya, madaniy komponent, leksik birlik, ingliz tili, lingvodidaktika, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвокультурные особенности безэквивалентных лексических единиц английского языка и вопросы их эффективного усвоения в процессе обучения английскому языку в общеобразовательной школе. Безэквивалентная лексика рассматривается как лексические единицы, не имеющие в другом языке полного и прямого смыслового соответствия и тесно связанные с национально-культурным опытом определённого народа. Раскрывается взаимосвязь понятий «безэквивалентная лексика» и «лакуна», а также обосновывается необходимость их разграничения в лингвистическом и лингводидактическом аспектах. На примере таких единиц, как *prom*, *homecoming*, *Thanksgiving*, *trick-or-treat*, *pub*, *Aunt Sally*, показана необходимость усвоения не только лексического значения, но и культурного компонента. В результате исследования разработаны практические рекомендации по использованию визуального, контекстуального, сопоставительного и коммуникативного подходов при обучении безэквивалентной лексике.

Ключевые слова: Безэквивалентная лексика, лингвокультура, лакуна, лингвокультурология, культурный компонент, лексическая единица, английский язык, лингводидактика, межкультурная коммуникация.

Abstract: The article examines the linguocultural features of non-equivalent lexical units in English and the problem of their effective acquisition in English language teaching at secondary schools. Non-equivalent vocabulary is considered as lexical units that do not have a complete and direct semantic equivalent in another language and are closely connected with the national and cultural experience of a particular people. The relationship between the concepts of non-equivalent vocabulary and lacuna is also discussed, with particular attention paid to their distinction from linguistic and linguodidactic perspectives. Examples such as *prom*, *homecoming*, *Thanksgiving*, *trick-or-treat*, *pub*, and *Aunt Sally* demonstrate that

learners need to acquire not only the lexical meaning of these units but also their cultural component. Based on the analysis, practical recommendations are proposed for using visual, contextual, comparative, and communicative approaches in teaching non-equivalent vocabulary.

Keywords: *Non-equivalent vocabulary, linguoculture, lacuna, linguoculturology, cultural component, lexical unit, English language, linguodidactics, intercultural communication.*

Bugungi globallashtirish sharoitida xorijiy tillarni o’rgatish jarayoni faqat grammatik va leksik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmay, til va madaniyatning o’zaro aloqadorligini ta’minlashni ham talab etmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini aks ettiruvchi ekvivalentsiz leksik birliklarni o’zlashtirish o’quvchilarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekvivalentsiz leksika deganda boshqa tilda to’liq va bevosita ma’no muqobiliga ega bo’lmagan yoki uning mazmunini birgina leksik birlik orqali to’liq ifodalash qiyin bo’lgan birliklar tushuniladi. Bunday birliklarning mazmuni ko’pincha muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, tarixiy voqealar, ijtimoiy institutlari va milliy-madaniy qadriyatlari bilan bog’liq bo’ladi.

Shu jihatdan ekvivalentsiz leksikani o’rganish o’quvchidan faqat yangi so’zning lug’aviy ma’nosini yodlab olishni emas, balki uning ortida turgan madaniy konseptni anglashni ham talab qiladi. Mazkur xususiyat ekvivalentsiz leksik birliklarni umumiy leksik birliklardan metodik jihatdan farqlab o’qitish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi ekvivalentsiz leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda ularni ingliz tilini o’qitish jarayonida samarali o’zlashtirishga xizmat qiluvchi lingvodidaktik yondashuvlarni asoslashdan iborat.

Til va madaniyat o’zaro uzviy bog’liq hodisalar bo’lib, xalqning tarixiy va ijtimoiy tajribasi uning lug’at tarkibida o’z aksini topadi. Shu sababli ayrim leksik birliklarni boshqa tilga tarjima qilishda faqat lug’aviy muqobilni topish yetarli bo’lmaydi. Bunday birliklarning mazmunini to’liq anglash uchun ularning qo’llanish sohasi, milliy-madaniy mazmuni va kommunikativ vaziyatdagi funksiyasini hisobga olish lozim.

Masalan, ingliz tilidagi Thanksgiving birligi o’zbek tilida oddiygina “minnatdorchilik” tarzida tarjima qilinsa, uning asosiy lug’aviy mazmunining bir qismi ifodalanadi. Biroq mazkur birlikning AQSh madaniyatidagi milliy bayram sifatidagi maqomi, uning nishonlanish an’analari va oilaviy qadriyatlar bilan bog’liqligi tarjimaning o’zi orqali to’liq ochib berilmaydi. Demak, ushbu birlikni o’rgatishda lingvistik ma’no bilan birga lingvomadaniy mazmun ham izohlanishi zarur.

Xuddi shuningdek, prom birligi “maktab bal kechasi” tarzida izohlanishi mumkin, biroq uning Amerika maktab madaniyatidagi ijtimoiy mavqei, o’quvchilar hayotidagi o’rni va unga xos an’analari haqida qo’shimcha ma’lumot berilmasa, o’quvchi birlikning to’liq kommunikativ mazmunini anglab yetmasligi mumkin.

Homecoming birligi ham bevosita tarjima qilishda muayyan qiyinchilik tug’diradi. U nafaqat “uyga qaytish” ma’nosini, balki Amerika ta’lim muassasalarida bitiruvchilar, talabalar va o’quvchilar ishtirokidagi muayyan an’anaviy tadbirlar majmuini ifodalashi mumkin. Shuning uchun mazkur birlikni kontekstdan tashqarida o’rgatish uning lingvomadaniy xususiyatlarini yetarli darajada ochib bermaydi.

Trick-or-treat esa Halloween bayrami bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos kommunikativ-madaniy birlikdir. Uning mazmunini o'quvchiga faqat tarjima orqali tushuntirishdan ko'ra, tegishli bayram muhiti, kiyimlar, bolalarning uyma-uy yurishi va shirinlik so'rashi kabi komponentlar bilan birgalikda taqdim etish samaraliroq hisoblanadi.

Shunday qilib, ekvivalentsiz leksik birlikning semantik tuzilishida milliy-madaniy komponent muhim o'rin tutadi. Uni o'qitishda ushbu komponentni e'tibordan chetda qoldirish o'quvchining so'z ma'nosini formal ravishda bilishiga, biroq real kommunikativ vaziyatda uni to'g'ri tushunmasligiga olib kelishi mumkin.

Ekvivalentsiz leksika va lakuna bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lsa-da, ularni aynan bir hodisa sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Lakuna, avvalo, bir til yoki madaniyatda mavjud bo'lgan tushuncha, hodisa yoki nomning boshqa til tizimida bevosita nomlanmaganligi bilan bog'liq holatni ifodalaydi. Ekvivalentsiz leksika esa muayyan tilda mavjud bo'lgan, boshqa tilda to'liq va bevosita leksik muqobilga ega bo'lmagan birlikning o'ziga nisbatan qo'llanadi.

Boshqacha aytganda, lakuna til tizimlari o'rtasidagi nomlashdagi nomuvofiqlikni ifodalasa, ekvivalentsiz leksika ana shu madaniy yoki semantik jihatdan o'ziga xos birlikni ifodalovchi leksik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ular bir-birini inkor qiluvchi emas, balki turli jihatni yorituvchi tushunchalardir.

Masalan, Aunt Sally ingliz tilida muayyan an'anaviy o'yin bilan bog'liq madaniy birlik sifatida qo'llanadi. O'zbek o'quvchisi uchun ushbu birlikning bevosita leksik muqobili mavjud bo'lmagani sababli uning mazmuni madaniy kontekst orqali ochib beriladi. Bunda birlikning o'zi ekvivalentsiz leksik birlik sifatida, uni boshqa tilda bevosita nomlash imkoniyatining mavjud emasligi esa lakunarlik hodisasi nuqtayi nazaridan izohlanishi mumkin.

Ekvivalentsiz leksik birliklarni o'rgatishda kontekstualizatsiya alohida ahamiyatga ega. So'zning tabiiy kommunikativ vaziyatda qo'llanishini ko'rsatish o'quvchiga uning ma'nosini mustaqil anglash va amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beradi.

Birinchi navbatda, vizual kontekstualizatsiyadan foydalanish mumkin. Masalan, Thanksgiving, prom yoki trick-or-treat birliklari rasmlar, videolavhalar, infografikalar va boshqa vizual materiallar orqali taqdim etiladi. Bunday yondashuv o'quvchida so'z va madaniy obraz o'rtasidagi assotsiativ bog'lanishni shakllantiradi.

Ikkinchidan, qiyosiy yondashuv samarali vosita hisoblanadi. O'quvchilarga ingliz madaniyatidagi muayyan hodisa va o'zbek madaniyatidagi unga yaqin hodisani taqqoslash topshirig'i berilishi mumkin. Masalan, Thanksgiving va O'zbekistondagi oilaviy bayramlar, prom va maktab tadbirlari, trick-or-treat va bolalarning bayram an'analari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlanadi.

Uchinchidan, kontekstual mashqlar orqali o'quvchi yangi birlikni real kommunikativ vaziyatda qo'llashga yo'naltiriladi. Bunda bo'shliqlarni to'ldirish, vaziyatga mos birlikni tanlash, dialog tuzish, rasm asosida hikoya qilish va rolli o'yinlardan foydalanish mumkin.

To'rtinchidan, madaniy izohlash usuli ekvivalentsiz birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchi pub so'zini "bar" deb tarjima qilish bilan cheklanmasdan, uning Britaniya madaniyatidagi ijtimoiy-madaniy funksiyasi haqida ham ma'lumot oladi.

Shu asosda ekvivalentsiz leksikani o'rgatish jarayonini quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin: tanib olish → ma'noni anglash → madaniy komponentni aniqlash → qiyoslash → kontekstda qo'llash → kommunikativ faoliyatga integratsiyalash.

Mazkur ketma-ketlik o’quvchining yangi birlikni oddiy yodlab olishidan uning mazmunini anglash va kommunikativ vaziyatda mustaqil qo’llashiga o’tishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ekvivalentsiz leksik birliklarni ingliz tilini o’qitish jarayoniga samarali integratsiyalash uchun quyidagi metodik tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ekvivalentsiz birlikni faqat tarjima orqali emas, kontekst va madaniy vaziyat bilan birgalikda taqdim etish.

2. Yangi birlikning lug’aviy va lingvomadaniy ma’nosini alohida ajratib ko’rsatish.

3. Rasmlar, videolar, xaritalar va autentik materiallar yordamida vizual-madaniy kontekst yaratish.

4. Ingliz va o’zbek madaniyatidagi o’xshash hamda farqli hodisalarni qiyosiy topshiriqlar orqali aniqlatish.

5. O’quvchilarga ekvivalentsiz birliklarni dialog, rolli o’yin va situativ mashqlar orqali qo’llash imkoniyatini yaratish.

6. O’quvchining faqat so’z ma’nosini bilishini emas, balki uning madaniy mazmunini tushunishi va kommunikativ vaziyatda to’g’ri qo’llay olishini ham baholash.

7. Ekvivalentsiz leksik birliklarni tematik guruhlar asosida tizimlashtirish: bayramlar, milliy taomlar, urf-odatlar, ijtimoiy institutlar, o’yinlar, kiyim-kechak va boshqa tarixiy-madaniy birliklar.

Ekvivalentsiz leksik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim qatlamlardan biridir. Ularning o’ziga xosligi boshqa tilda to’liq va bevosita leksik ekvivalentning mavjud emasligi bilangina emas, balki muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini o’zida mujassamlashtirishi bilan ham belgilanadi.

Tahlil shuni ko’rsatadiki, ekvivalentsiz leksikani o’qitishda faqat tarjimaga asoslangan yondashuv yetarli emas. O’quvchi yangi birlikning lug’aviy ma’nosi bilan bir qatorda uning lingvomadaniy komponentini ham anglab yetishi lozim. Shu sababli vizual, kontekstual, qiyosiy va kommunikativ metodlarning uyg’unligi ekvivalentsiz leksik birliklarni samarali o’zlashtirishga xizmat qiladi.

Ekvivalentsiz leksika va lakunani farqlash ham mazkur jarayonning nazariy asosini aniqlashtiradi. Lakuna tillar o’rtasidagi nomlashdagi nomuvofiqlikni ifodalasa, ekvivalentsiz leksika ushbu sharoitda to’liq muqobilga ega bo’lmagan leksik birlikni tavsiflaydi. Mazkur farqlashdan metodik jihatdan foydalanish o’quvchilarning til va madaniyat o’rtasidagi bog’liqlikni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Demak, ekvivalentsiz leksik birliklarni tizimli, madaniy-kontekstual va kommunikativ asosda o’rgatish o’quvchilarning nafaqat lug’at boyligini, balki madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 1990.

2. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2003.

3. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово/Slovo, 2000.

4. Томахин Г.Д. Реалии-американизмы. – М.: Высшая школа, 1988.

**“Pedagogik ta’lim va tarbiya
transformatsiyasida fundamental,
amaliy va innovatsion
tadqiqotlarning konseptual
asoslari” mavzusidagi Xalqaro
ilmiy-amaliy anjuman materilalari
to‘plami**



23.06.2026

**Proceedings of the International
Scientific and Practical
Conference on “Conceptual
Foundations of Fundamental,
Applied, and Innovative
Research in the Transformation
of Pedagogical Education and
Upbringing”**

5. Пассов Е.И. Коммуникативное иноязычное образование: концепция развития индивидуальности в диалоге культур. – Липецк: Липецкий государственный педагогический университет, 1998.

6. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.